

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**Erkinova Dilobar**

QQDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bayon etilgan. Raqamli turizm nafaqat pulni, balki asabni va qimmatli vaqtingizni tejashning ajoyib usuli bulib, sayohatchilarga sayohatdan oldin, sayohat davomida va undan keyin taqdim etiladigan elektron xizmatlardir.

Kalit so'zlar: turizm, raqamli turizm, turizm infotuzilmasi, xizmatlar iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot

Аннотация. В данной статье описаны возможности развития цифрового туризма в Узбекистане. Цифровой туризм - это отличный способ сэкономить не только деньги, но и нервы, и драгоценное время благодаря электронным услугам, предоставляемым путешественникам до, во время и после поездки.

Ключевые слова: туризм, цифровой туризм, инфраструктура туризма, экономика услуг, цифровая экономика

Abstract. This article describes the opportunities for the development of digital tourism in Uzbekistan. Digital tourism is a great way to save not only money, but also nerves and precious time thanks to the electronic services provided to travelers before, during and after the trip.

Keywords: tourism, digital tourism, tourism info structure, service economy, digital economy.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini kursatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilyapti. Iqtisodiy munosabatlar tizimiga innovatsiyalarni joriy qilish bilan bir qatorda O'zbekistonda raqamli makonni shakllantirish hamda raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan ilmiy tadqiq etish zaruratini belgilab berdi. Qolaversa, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va takomillashtirish masalalari har bir rivojlanib borayotgan davlatning ustuvor va muhim vazifasiga aylanib bormoqda [1].

Respublikamiz Markaziy Osiyoning eng yirik turistik maskanlaridan biri sifatida iqtisodiyotning mazkur tarmoğini rivojlantirishda katta potencialga ega hisoblanadi.



Mamlakatimizda sunggi 5 yilda turizm sohasidagi normativ-huquqiy bazaning yanada rivojlantirilishi, turistik infratuzilma rivoji, sayyohlik salohiyati targ'iboti, kadrlar salohiyatini kuchaytirishga katta e'tibor qaratildi. Bu kabi amalga oshirilayotgan turizm sohasidagi islohotlar albatta turistlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi bosqichda global turizm industriyasining rivojlanish tendenciyalaridan biri Internet texnologiyalarining rivojlanishi, boshqacha aytganda, turizmning zamonaviy rivojlanishi raqamli iqtisodiyotda kechmoqda. Yani raqamlashtirish jarayoni juda kuplab sohalar kabi turizm industriyasini ham chetlab utmadi.

Potencial sayyohlar tomonidan veb-resurslardan keng foydalanish raqamli turizm paydo bulishiga, mijozlarga sayohat yunalishini va turizm sohasidagi qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan tavsiyalarni ishlab chiqish uchun intellektual veb-servislarning rivojlanishiga olib keldi. Jumladan, Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga kutarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikaciya qilish va hajmini keskin kupaytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qushimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida elektron platforma va mobil ilovalardan foydalanish belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyati jadal rivojlanmoqda. Sunggi yillarda mamlakat milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish buyicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda, bu esa uning tez rivojlanishi, yangi ish urinlarini yaratish, daromadlarni kupaytirish, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shuningdek, investicion jozibadorligini oshirishga qaratilgan. Shuni takidlash lozimki, turizm sohasida raqamli transformaciyaning muhim tendenciyalari paydo bulmoqda va ushbu texnologiyalarning turizm mahsulotlari va xizmatlariga integraciyasi raqamli turizmga olib boradigan innovacion jarayonning asosiy elementi sanaladi.

Turizm sanoatining hozirgi holati kup jihatdan Internet tarmoigiga ulanish, tarmoq orqali taqdim etiladigan elektron tranzakciyalar va xizmatlarga bog'liq, shu munosabat bilan raqamli



echimlardan foydalanishni kengaytirish sayyohlik korxonalarini biznes ehtiyojlariga moslashtirish uchun zarur shartdir.

Shunga uxshash vaziyat iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham sodir bulayotganligi aniq, ammo shuni takidlash kerakki, turizm sanoati uziga xosligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi, shuning uchun bu erda Internet texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. "Internet live stats" malumotiga kura, bugungi kunda dunyoda qariyb 5,5 milliard kishi Internet-resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Ular tomonidan bir kunda 178 milliarddan ortiq elektron xatlar yuborilmoqda, 5,5 milliarddan ortiq gogl orqali qidiruvlar amalga oshirilmoqda, 549,5 milliondan ortiq xabar twitter orqali junatilmoqda, 5,2 milliarddan ortiq video yutub orqali tomosha qilinmoqda, 63,7 milliondan ortiq rasmlar instagram orqali yuklab olinmoqda va etiborli jihati bu raqamlar kun sayin yanada ortib bormoqda. Shu bilan birga, Internet foydalanuvchilari turli yoshdagi, turlicha daromadli va ijtimoiy mavqega ega bulgan odamlardir [3].

Shunisi qiziqki, Internet resurslaridan faol foydalanuvchilar orasida har yili ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiladigan va malumot qidirish uchun Internetdan foydalanadigan keksa odamlar kupayib bormoqda. Jahon tendenciyasiga hamohang ravishda O'zbekistonda ham internet foydalanuvchilarining umumiy soni 28 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 26 million kishini tashkil etmoqda. Bugungi kunga kelib 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan, 54 foiz uy xujaliklariga yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan. Shuningdek, mobil aloqa baza stanciyalari soni oshirishi va malumotlar utkazish xalqaro tarmoqining utkazuvchanlik qobiliyati yanada tezlashmoqda. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotidagi raqamlashuv kursatkichlari O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Turizmni jadal rivojlantirish, turistlarga munosib infratuzilma yaratish, xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning turistik salohiyatidan unumli foydalanishi va yangi ish urinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlari ishlab chiqarishni kupaytirish uchun aniq maqsadga yunaltirilgan ishlar davom ettirilmoqda.

Fikrimizcha O'zbekistonda turizmni yanada taraqqiy ettirish uchun zaruriy turizm infratuzilmasi bilan birgalikda turizm infotuzilmasini ham takomillashtirish zarur. Turistik infotuzilma-turizmga taaluqli barcha turdagi xizmatlar tugrisidagi malumotlar majmuasidir. Turizm rivojiga taaluqli barcha sohalarda innovacion malumot olish manbalarini joriy qilish va



ularni jadal takomillashtirish raqamli makonni shakllantirib, undan samarali foydalanish nafaqat mahalliy sayohatchilar, balki xorijiy sayyohlar uchun ham muhim omillardan biri sanaladi. Bunda xizmatlar tuğrisidagi nafaqat ananaviy shakldagi buklet, flaer, varaqa, broshyura va bannerlarni tayyorlash, balki raqamli kurinishdagi veb sahifa va portallar, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram,..)dagi sahifalar, messenjer (WhatsApp, Telegram)lardagi kanal va botlar, video portal (You Tube, Rutube Mytube)lardagi profillar, smartfon va planshetlar uchun mobil ilova va QRkodlarga ustuvorlik beriladi.

Evropa va AQSHda tashkil etilmagan (yani hech qanday turoperator va turagentlarsiz) turizmning keskin rivojlanishi aynan raqamli turizm hissasiga tuğri keladi. Turist hali biror turistik destinaciyani tanlashidan oldin, mustaqil ravishda uydan chiqmasdan usha joy haqida internet orqali (hatto 360 darajali va panoramik kurinishlar orqali) batafsil malumotga ega buladi, uziga qulay yunalishlar buyicha elektron avia (temir yul, avtobus) chiptalarini xarid qiladi, xohishiga kura mehmonxona turilaridan birini juda kuplab internet portallar takliflaridan tanlab oladi, ijtimoiy tarmoqlarda sayohat tuğrisidagi uziga uxshagan turistlarning tavsiyalari va sharhlarini kurib borib, uz fikrlarini bildirib boradi, sayohati davomida esa Google Maps, Maps.me kabi onlayn va oflayn xaritalardan, geolokacion servislari, mobil ilova, QR kod texnologiyalaridan unumli foydalanib maksimal darajadagi qoniqishga erishadi [4].

Raqamli turizm xizmatlari sayohatchiga marshrutni rejalashtirishda yordam berish uchun kerakli turar joyni topish buyicha maslahat berishi mumkin. Bundan tashqari, ular uz mobil telefonlariga mobil ilova qullanma sifatida urnatish imkoniyatiga ega bulishadi. Turistik biznesni raqamlashtirish sharoitida mijoz uzi malum bir tur haqida malumot qidiradi, malum bir kompaniyani tanlaydi va xizmatlarning narxlarini taqqoslaydi. Jarayon mijozga uzi yoqtirgan turni sotib olish bilan yakunlanadi va xizmatlar unga kechayu kunduz taqdim etiladi, bu esa xizmat sifatini yaxshilaydi va mijozning qoniqishini oshiradi. Etibor bering, raqamli imkoniyatlar doimiy ravishda kengayib bormoqda va undan foydalanish imkoniyati oshmoqda.

Shunday qilib, raqamli turizm texnologiyaga asoslangan qidiruvlar asosida sayohat tuğrisidagi ma'lumotlarning mavjudligi va xilma-xilligi, aynan bir destinaciya haqida undan foydalanganlarning fikr-mulohazalari, foto surat va video roliklari usha manzilni tanlash yoki tanlamaslikka qaror qabul qilishga, rejalashtirishga hamda uni amalga oshirishga yordam beradi.



Mamlakatimizda raqamli turizmni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yunalishlarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir:

a) Turistik infratuzilma bilan birgalikda turistik infotuzilmani rivojlantirish.

b) mamlakatimizdagi turoperator va turagentlar, mexmonxona va restoranlar, transport va boshqa xizmat kursatuvchi turistik korxonalarining mutaxassis va xodimlarini bugungi kundagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida, raqamli marketing, elektron biznes imkoniyatlari, GoogleAnalytics, YAndeks.Metrika, Ijtimoiy media, Facebook, Instagram, WhatsApp, Telegram imkoniyatlari, e-mail marketing, mobil marketing (QR kod, mobil ilova), internet reklamanning innovacion usullari kabi raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari buyicha mahalliy soha mutahassislari va xorijiy ekspertlarning uquv seminarlari va treninglarida muntazam qatnashishini taminlash zarur.

v) Mamlakatimizdagi turistik korxonalar, tashkilot va muassasalarning iqtisodiy munosabat va boshqaruv sohasida zamonadan ortda qolishini bartaraf etish uchun istemolchilar bilan kommunikatsiya qilish, elektron tuloqlarning yangi shakllarini joriy etish orqali sekin astalik bilan bulsada faoliyatlarini transformatsiya qilishlari talab etiladi.

g) O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish buyicha ilmiy izlanishlar, amaliy tadqiqotlar olib borish, darslik, uquv qullanma va kursatmalar yaratishni qullab quvvatlash ushbu sohani yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Turizmdagi raqamlashtirish sayyohlik biznesini nafaqat zamonamizning voqelariga moslashuvchan, balki rivojlanayotgan "raqamli dunyo"da yanada raqobatbardosh qilishga majbur qiladi. Mamlakatimizda raqamli turizmni rivojlanishi biz mijozlarga juda katta qulayliklar, manfaatlar beradi va uz navbatida turistik korxonalarining egalariga esa yanada yuqori daromad olish imkonini beruvchi vaziyatlarni taminlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон "Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" ги Фармони



2. Халмуратов, К. П. "Қорақалпоғистон республикасида хизматлар соҳасида давлат-хусусий шерикчилигининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш." Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа докторлиги (PhD) диссертацияси. Нукус (2021).
3. Xalmuratov K. Issues of application of puplic-private partnership mechanism in educational services sphere. Psychology & education (Bi-Monthly Journal) 2021 йил январь.
4. Xalmuratov K.P. Xalmuratova A. Erkinova D. Ózbekstanda turizm tarawín rawajlandırıwdıń tiykarǵı baǵdarları. Akademik Charjaw Abdirovtıń tuwılǵanına 90 jıl tolıw múnásibetine baǵıshlanǵan "Házirgi zaman ilimi hám bilimlendiriwiniń áhmiyetli mashqalaları" atamasındaǵı xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciyası, 2023